



THE SPREAD OF FALSE INFORMATION IN VIRTUAL COMMUNICATION AND ITS IMPACT ON SOCIETY

Bekzod Muhammadiyev

Assistant Lecturer

*Samarkand Branch of the Tashkent University of Information Technologies named after
Muhammad al-Khorazmi*

E-mail: bekzod200599@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Virtual communication, misinformation, disinformation, information society, media literacy, information security.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the causes, forms, and consequences of the dissemination of false information on virtual communication platforms in the information society. The study found that factors such as artificial intelligence-based content generation, social media algorithms, influencer activity, and audience information culture create the basis for the dissemination of false information. The article also provides a scientific analysis of the consequences of the dissemination of false information, including a decline in social trust, a tendency to manipulate socio-political views, and a weakening of the boundaries between truth and opinion in the minds of young people.

VIRTUAL MULOQOTDA YOLG'ON AXBOROT TARQALISHI VA UNING JAMIYATGA TA'SIRI

Bekzod Muhammadiyev

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali assistenti*

bekzod200599@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Virtual muloqot, yolg'on axborot, dezinformatsiya, axborotlashgan jamiyat, media savodxonlik, axborot xavfsizligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida virtual muloqot maydonlarida yolg'on axborot tarqalishining sabablari, shakllari hamda uning

ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi kontent generatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlarning algoritmik ishlash tizimi, influenserlar faoliyati hamda auditoriyaning axborot madaniyati kabi omillar yolg'on axborotning kengayishiga zamin yaratishi aniqlangan. Maqolada yolg'on axborotning ijtimoiy ishonchning pasayishi, ijtimoiy-siyosiy qarashlarning manipulyatsiyaga moyillashuvi, yoshlar ongida haqiqat va fikr o'rtasidagi chegaralarning susayishi kabi oqibatlari ilmiy tahlil qilinadi.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЛОЖНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ВИРТУАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВО

Бекзод Мухаммадиев

Ассистент Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразми

E-mail: bekzod200599@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Виртуальное общение, ложная информация, дезинформация, информационное общество, медиаграмотность, информационная безопасность.

Аннотация: В данной статье анализируются причины, формы и последствия распространения ложной информации на виртуальных коммуникационных платформах в информационном обществе. В ходе исследования установлено, что такие факторы, как генерация контента на основе искусственного интеллекта, алгоритмическая система социальных сетей, деятельность инфлюенсеров и информационная культура аудитории, создают основу для распространения ложной информации. В статье научно анализируются последствия распространения ложной информации, такие как снижение социального доверия, склонность к манипулированию общественно-политическими взглядами и ослабление границ между истиной и мнением в сознании молодёжи.

Kirish. XXI asrda jamiyatning axborotlashuvi jarayoni insonlararo muloqotning mazmuni va shaklida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil kommunikatsiya vositalari hamda raqamli platformalarning ommalashuvi axborot almashinuvi

tezligi va hajmini keskin oshirib, virtual kommunikatsiyani ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Ushbu jarayon bilan bir qatorda axborot maydonida yolgʻon axborot, yaʼni dezinformatsiya, manipulyativ kontent va faktlarga asoslanmagan xabarlarining tezkor tarqalishi zamonaviy jamiyat uchun jiddiy axloqiy hamda ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda.

Virtual muloqot muhitida yolgʻon axborot tez tarqalishining asosiy omillari qatoriga ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining "trend" tamoyili asosida ishlashi, xususiy manfaatlarga yoʻnaltirilgan kommunikatsiya strategiyalari, shuningdek, ayrim foydalanuvchilarning media savodxonlik darajasining pastligi kiradi[1, 59]. Yolgʻon axborot oqimi jamiyatda ishonch institutlarining zaiflashishiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda manipulyatsiya kuchayishiga, odamlararo munosabatlarda mojarolar avj olishiga sabab boʻlishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlodning maʼlumotni tanqidiy idrok etish darajasi yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu muammoning yanada dolzarbligini oshiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda yolgʻon axborot faqat kommunikatsion muammo emas, balki milliy xavfsizlik, axloqiy tarbiya, ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy ong rivojiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bois virtual muloqotdagi yolgʻon axborotning tarqalish mexanizmlarini oʻrganish, uning jamiyatga taʼsirini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ushbu jarayonni kamaytirishga qaratilgan konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yoʻnalishlaridan biridir.

Asosiy qism. Virtual muloqotning rivojlanishi insonlar oʻrtasidagi axborot almashinuvini keskin tezlashtirdi, ammo ushbu jarayon bilan bir qatorda yolgʻon axborotning ham keng tarqalishiga imkoniyat yaratdi. Raqamli platformalar sonining ortishi, axborot isteʼmolchilarining kengayishi va internetdan foydalanish madaniyatining turlicha boʻlishi natijasida virtual makonda tarqaladigan maʼlumotlar sifati sezilarli darajada farqlanmoqda. Shu sababli yolgʻon axborotning tabiati, tarqalish mexanizmlari va uning jamiyat hayotiga taʼsiri koʻp qirrali tadqiqotni talab etadi.

Internetning ulkan imkoniyatlari — axborotning yuqori tezlikda tarqalishi, auditoriyaning cheklanmaganligi, global muloqot maydonining shakllangani — nafaqat ijobiy, balki salbiy maqsadlarni koʻzlagan kuchlar tomonidan ham faol foydalanilayotganini eʼtirof etish lozim. Bugungi tadqiqotlar natijalari shuni koʻrsatadiki, internet tarmogʻida faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq terroristik tashkilotlarning virtual manzillari aniqlangan. Terrorizm internet muhitida oʻta moslashuvchan va izchil strategiya asosida namoyon boʻladi: bunday saytlar toʻsatdan paydo boʻladi, tez-tez oʻz formatini oʻzgartiradi, zarur paytda esa manzilini oʻzgartirish

orqali izsiz yo‘qolib qoladi. Bu holat virtual makonning nazorat imkoniyatlari va xavfsizlik mexanizmlariga jiddiy tahdid tug‘diradi[1, 98].

XXI asr boshlarida hayot sur‘atining keskin tezlashuvi, axborot oqimining misli ko‘rilmagan kuchayishi natijasida jamiyatdagi avtoritet — nufuz tushunchasi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Ba’zi yoshlarning bilim olish, dunyoqarashni shakllantirish va hayotga munosabat belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiy emas, balki ommaviy axborot vositalari va internet-resurslarni asosiy manba sifatida qabul qilayotgani tashvishlanarli holatdir[2, 87]. Virtual makondagi axborotlarga mutlaq haqiqat sifatida ishonish, ularning manba va mazmunini tahlil qila olmaslik yoshlar ongida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga, manipulyativ mazmundagi ma’lumotlarning tez singib ketishiga zamin yaratadi.

Bu jarayon, o‘z navbatida, haqiqatni yolg‘ondan ajratish ko‘nikmasi hali shakllanmagan yosh avlodning fikrlash madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tajribasizlik va axborot xurujlariga nisbatan himoyasizlik holati ta’lim-tarbiya muassasalari zimmasiga yanada murakkab vazifalarni yuklamoqda. O‘quvchi-yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish, tanqidiy fikr yuritish kompetensiyalarini shakllantirish, internetdagi zararli ta’sirlardan himoya qilish bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Yolg‘on axborotning eng tarqalgan turlaridan biri dezinformatsiyadir. Bu holatda noto‘g‘ri ma’lumot ataylab, muayyan maqsad yo‘lida tarqatiladi. Dezinformatsiyaning asosiy xususiyati – uning ortida ideologik, siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlar yotadi[3, 29]. Misinformatsiyada esa foydalanuvchi bilmagan holda xato yoki noto‘g‘ri ma’lumotni tarqatadi, bu esa ko‘pincha media savodxonlikning pastligi bilan bog‘liq. Manipulyativ kontent, ya’ni faktlar buzib talqin qilingan xabarlar esa odamlarning psixologik holatiga ta’sir qiladi va ularni ma’lum bir fikrga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, keskin hissiy mazmundagi postlar keng tarqalish xususiyatiga ega bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari tomonidan ustuvor ravishda tavsiya etiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning algoritmik tizimi yolg‘on axborotning keng tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina platformalar “jalb etuvchanlik” ko‘rsatkichiga asoslangan algoritmlardan foydalanadi[4, 119]. Ya’ni, layklar, kommentlar va repostlar ko‘p bo‘lgan materiallar avtomatik ravishda keng auditoriyaga tavsiya qilinadi. Bunday mexanizm faktual jihatdan noto‘g‘ri bo‘lgan kontentning ham tezkor tarqalishiga sabab bo‘ladi. Chunki foydalanuvchilar keskin, bahsli yoki hissiy kontentga ko‘proq reaksiya bildiradi, bu esa uni algoritmlar nuqtayi nazaridan “muhim” materialga aylantiradi. Natijada, axborot sifati emas, balki uning odamlarni jalb qilish qobiliyati ustuvor bo‘lib qoladi.

Tadqiqot davomida auditoriyaning virtual axborotga bo'lgan munosabati ham o'rganildi. So'rovnoma shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilarning sezilarli qismi ko'rgan ma'lumotning haqiqatga mosligini tekshirishga intilmaydi. Xabarni tarqatish qarori ko'pincha uning emotsional ta'siri, vizual jozibadorligi yoki uni joylagan shaxsga bo'lgan ishonch asosida qabul qilinadi. Bu holat media savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligini, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari esa ko'pchilikda yetishmasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadigan guruhlar orasida yolg'on axborotga ishonish darajasi yuqoriligi aniqlangan. Bu esa yosh avlodning haqiqiy voqelikni idrok etish mexanizmlarida ma'lum kamchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda virtual muloqot muhitida yolg'on axborot tarqalishining sabablari, mexanizmlari hamda uning jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda o'rganish maqsad qilingan. Maqolada qo'llanilgan metodologik yondashuvlar quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

Tadqiqotning nazariy poydevorini kommunikativ faoliyat nazariyasi, axborot jamiyati konsepsiyasi, media ta'sir nazariyalari (agenda-setting, framing, spiral of silence), shuningdek, dezinformatsiya va propaganda bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Ushbu nazariyalar virtual axborot oqimlarining shakllanishi, foydalanuvchi ongiga ta'siri va yolg'on kontentning tarqalish mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, X, YouTube)dagi postlar, video materiallar, xabarlar va auditoriya reaksiyalari kontent tahlili orqali o'rganildi. Kontent tahlil metodidan foydalanish yolg'on axborotning strukturasi, mavzulari, ko'payish dinamikasi va auditoriya tomonidan qabul qilinish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Virtual muloqotdagi yolg'on axborot holati turli platformalar va turli yosh guruhlaridagi foydalanuvchilar misolida solishtirma tahlil qilindi. Mazkur yondashuv platformalar algoritmlarining o'ziga xosligi, axborot filtrlari, auditoriya faolligi va tarqalish tezligidagi farqlarni aniqlashga xizmat qildi.

Jamiyatda yolg'on axborotni qabul qilish darajasi va unga bo'lgan munosabatni o'rganish maqsadida kichik hajmli elektron so'rovnoma o'tkazildi. Shuningdek, foydalanuvchilarning virtual muloqotdagi xatti-harakatlari ustidan tizimli kuzatuv olib borilib, ularda axborotni tanlash mezonlari, baholash usullari va tarqatish motivlari tahlil qilindi.

Yolg'on axborotning shakllanishi va tarqalishini faqat kommunikatsion jarayon emas, balki ijtimoiy, madaniy, texnologik va psixologik omillar bilan bog'liq murakkab tizim sifatida o'rganish uchun sistemali yondashuv qo'llanildi. Bu metod virtual axborot muhitidagi o'zaro bog'liq elementlarni aniqlashga yordam berdi.

Yig'ilgan ma'lumotlar asosida yolg'on axborotning tarqalish tezligi, qayta ulashish ko'rsatkichlari, auditoriyaning ishonch darajasi kabi parametrlar shartli statistik ishlovdan o'tkazildi. Bu jarayon muammoning miqyosini aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tadqiqot davomida foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlari himoyalandi, anonimlik tamoyili saqlandi hamda faqat ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu yondashuv tadqiqotning axloqiy tozaligi va ilmiy haqqoniyligini ta'minladi.

Tahlil va natijalar. Virtual muloqot maydonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yolg'on axborot turli shakllarda namoyon bo'ladi va ularning har biri jamiyatga turlicha darajada ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, yolg'on axborotning asosiy ko'rinishlari dezinformatsiya, misinformatsiya, manipulyativ materiallar hamda emotsional-provokatsion xabarlar hisoblanadi[5, 149]. Ayniqsa, hissiy ta'siri kuchli bo'lgan kontentning qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga tarqalishi kuzatildi. Bu holat foydalanuvchilarning emotsional reaksiyaga moyilligi yolg'on axborot tarqalishida muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining ishlash tamoyillari yolg'on axborot tarqalishi jarayonida bevosita rol o'ynaydi. Platformalar asosan "jalb etuvchanlik"ka[6, 72] tayanib ishlagani sababli, faktual jihatdan tekshirilmagan bo'lsa ham, bahsli yoki keskin hissiy kontent ko'proq ko'rinish oladi va trendga chiqadi. Shu tariqa, algoritmik tizim foydalanuvchilarni xabarning to'g'riligidan ko'ra, uning emotsional kuchi bilan jalb etadi va bu esa yolg'on axborotning viruslanuvchanligini kuchaytiradi.

Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan axborotlarning qaysi biri foydali yoki zararli ekanini anglab olish, avvalo, yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi, tafakkuri va axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmalariga bog'liqdir. Bu jarayonda ularning mafkuraviy immunitetining qay darajada shakllangani muhim o'rin tutadi. Chunki inson omili nuqtai nazaridan qaralganda, mafkuraviy immunitet — bu har qanday ma'naviy yoki axborotiy ta'sirga berilmaslik, uni tahlil qila olish, mazmunini chuqur anglash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatning mavjudligi shaxs ongining yetukligi, fikrlashning teranligi, idrokning o'tkirligi hamda axborotni chuqur mushohada qilgan holda baholashga bevosita bog'liq.

Insonning bunday ko'nikmalarga ega bo'lishi birdaniga yuz bermaydi; u tug'ilganidan boshlab shaxs sifatida to'laqonli shakllanguncha bo'lgan davr mobaynida izchil ravishda rivojlanadi. Bu jarayonda milliy o'zlikni anglash, milliy e'tiqod, milliy g'urur va Vatanga sadoqat kabi ma'naviy-ruhiy omillar alohida ahamiyat kasb etadi[7, 44]. O'z xalqining qadriyatlarini qadrlaydigan, milliy merosga hurmat bilan yondashadigan, Vatanni sevish ruhida tarbiyalangan yoshlarning zararli axborot oqimlariga berilib ketishi ehtimoli juda past bo'ladi.

Chunki bunday yoshlar keng dunyoqarash, chuqur bilim, mustaqil fikrlash qobiliyati va masalaga yangicha, analitik yondasha olish salohiyati bilan ajralib turadi. Ular har qanday axborot ortida muayyan g'oya, manfaat yoki maqsad yashiringan bo'lishi mumkinligini anglay oladi, uni tahlil qiladi, solishtiradi va xolis xulosa chiqaradi. Bunday ongli yondashuv esa ularni manipulyativ, ma'naviy zararli yoki ekstremistik mazmundagi axborotlarning ta'siridan samarali himoya qiladi.

So'rovnoma va kuzatuvlar asosida auditoriyaning axborotni qabul qilish va tarqatish xatti-harakati ham o'rganildi. Natijalarga ko'ra, foydalanuvchilarning sezilarli qismi ko'rgan xabarni tekshirishga ehtiyoj sezmaydi va uni emotsional ta'siri yoki uni joylagan shaxsga bo'lgan ishonchi sababli ulashadi. Media savodxonlikning yetarli emasligi yolg'on axborotning keng tarqalishiga sezilarli hissa qo'shayotgani aniqlandi. Faqat oz qism foydalanuvchilar faktcheking vositalaridan muntazam foydalanishi ma'lumotlarning tanqidiy idrok etilishi hali to'liq shakllanmaganini anglatadi.

Tadqiqot davomida yolg'on axborotning jamiyatga ko'rsatadigan ta'siri ham keng ko'lamda o'rganildi. Eng avvalo, institutsional ishonchning pasayishi, rasmiy axborot manbalariga nisbatan shubhaning kuchayishi kuzatildi. Shuningdek, yolg'on axborot siyosiy jarayonlarni manipulyatsiya qilish, jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy qarashlarni o'zgartirishda vosita sifatida ishlatilishi aniqlangan. Ayrim holatlarda yolg'on xabarlar guruhlararo tushunmovchilik, agressiya va virtual mojarolarga sabab bo'layotgani qayd etildi. Ayniqsa, yoshlar orasida fakt bilan fikr o'rtasidagi chegaraning susayishi haqiqat mezonlarining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi kuzatildi.

Yolg'on axborotning tarqalish mexanizmlarini tahlil qilish natijasida bir nechta kuchli omillar aniqlangan: platforma algoritmlari, emotsional kontentning ustuvorligi, media savodxonlik darajasining pastligi, anonimlik imkoniyatlari, shaxsiy manfaat yoki reklama motivlari hamda "tezkor ulashish" odatining shakllanganligi. Bu omillar o'zaro birlashgan holda yolg'on axborot oqimining barqaror va doimiy kuchayib borishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot yakunida muammoni kamaytirishga qaratilgan bir qator yechimlar taklif qilindi. Xususan, media savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarini takomillashtirish, faktcheking markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, virtual muloqot etikasi bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish va yolg'on axborotga qarshi normativ-huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi. Ushbu natijalar axborot madaniyatini rivojlantirish hamda virtual makonda sog'lom kommunikatsiya muhitini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar virtual muloqot sharoitida yolg'on axborotning tarqalishi murakkab ijtimoiy, psixologik va texnologik omillar bilan chambarchas bog'liq jarayon ekanligini ko'rsatdi. Yolg'on axborotning asosiy shakllari — dezinformatsiya, misinformatsiya, manipulyativ kontent va emotsional-provokatsion xabarlar — o'z tabiatiga ko'ra auditoriya psixologiyasiga tez ta'sir ko'rsatadi va qisqa vaqt ichida keng tarqalish imkoniga ega. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining "jalb etuvchanlik" tamoyiliga asoslanishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirib, faktual jihatdan noto'g'ri bo'lgan kontentning ham trendga chiqishiga zamin yaratadi.

Media savodxonlikning pastligi, axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarining yetarli emasligi, emotsional ta'sirga beriluvchanlik va anonimlik imkoniyatlari yolg'on axborot oqimini kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Bu holat jamiyatda institutsional ishonchning susayishiga, ijtimoiy-siyosiy manipulyatsiyaning ko'payishiga, guruhlararo ziddiyatlarning kuchayishiga hamda yoshlarning haqiqatni idrok etishida buzilishlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Yolg'on axborotning jamiyatga salbiy ta'sirini kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Media savodxonlikni rivojlantirish, faktcheking faoliyatini kuchaytirish, raqamli platformalarning axborotni filtrlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, virtual muloqot etikasi bo'yicha keng ko'lamli tushuntirish ishlarini yo'lga qo'yish muammoni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash va raqamli axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish jamiyatning yolg'on axborotga qarshi immunitetini kuchaytiradi.

Umuman olganda, virtual muloqotdagi yolg'on axborot muammosi zamonaviy axborotlashgan jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, uning oqibatlarini kamaytirish ilmiy, texnologik va ijtimoiy choralarni uyg'un holda qo'llashni taqozo etadi. Maqolada olingan natijalar ushbu sohadagi keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyat uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
2. Wardle, C., & Derakhshan, H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework. Council of Europe Report, 2017.
3. McQuail, D. McQuail's Mass Communication Theory. London: Sage Publications, 2015.

4. Pariser, E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. New York: Penguin Books, 2011.
5. Sunstein, C. R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. Princeton University Press, 2017.
6. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. "The Spread of True and False News Online." Science, 2018, Vol. 359, pp. 1146–1151.
7. Usmonov F. Ethics of science: moral principles and their role in the development of society //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 41-45.